

Kuchkarov Akmaljan Ikramovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi Iqtisodiyotni monetar tartibga solish magistratura mutaxassisligi tinglovchisi.

Foziljonov Ibroximjon Sotvoldixo'ja o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Bank ishi va investitsiyalar kafedrasida v.b. dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy raxbar.

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MONETAR SIYOSAT INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlar tajribasi hamda xalqaro standartlar asosida O'zbekiston Respublikasida monetar siyosat va uning instrumentlarini takomillashtirish usullari tadqiq etiladi. Shuningdek, monetar siyosat hamda uning global va milliy iqtisodiyotga ta'siri borasida qarashlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: foiz stavkalari, ochiq bozor operatsiyalari, zaruriy rezervlar, valyuta kursi siyosati, kredit nazorati.

KIRISH

Global iqtisodiyotda monetar siyosat, davlatlar va ularning markaziy banklari tomonidan amalga oshiriladigan pul va kredit siyosatlarini ifodalaydi. U xalqaro savdo, investitsiyalar, valyuta kurslari va iqtisodiy o'sish kabi ko'plab omillarga ta'sir ko'rsatadi.

Monetar siyosat — bu davlatning pul massasi, foiz stavkalari va kredit shartlarini boshqarish orqali iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va barqarorligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan siyosatdir. U asosan markaziy banklar tomonidan yuritiladi va iqtisodiy o'sish, inflatsiya, ish bilan ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni boshqarish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Monetar siyosatning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Inflatsiyani nazorat qilish: Pul massasining oshishi narxlar darajasining ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. Monetar siyosat inflatsiyani pasaytirishga yordam beradi.

Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish: Foiz stavkalarini pasaytirish orqali investitsiyalarni rag'batlantirish va iqtisodiy faoliyatni oshirish.

Ishsizlikni kamaytirish: Iqtisodiy o'sish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash: Moliyaviy bozorlarning barqarorligini saqlash va moliyaviy inqirozlarni oldini olish.

Mamlakatda monetar siyosatning asosiy vositalari iqtisodiyotni rivojlanishi bilan bir qatorda mamlakat aholisining barqaror turmush tarzini kafolatlash uchun xizmat qilib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Foiz stavkalari: Markaziy banklar foiz stavkalarini o'zgartirish orqali iqtisodiy faoliyatni boshqaradi. Masalan, foiz stavkalarini pasaytirish kredit olishni arzonlashtiradi, bu esa investitsiyalarni oshiradi.

Ochiq bozor operatsiyalari: Markaziy banklar davlat obligatsiyalarini sotib olish yoki sotish orqali pul massasini boshqaradi.

Zaxira talablarini belgilash: Banklarning mijozlardan olgan depozitlariga nisbatan majburiy zaxira talablarini belgilash orqali pul massasini nazorat qilish.

Turlari:

1. Ekspansiv monetar siyosat: Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida pul massasini oshirish.
2. Siklet monetar siyosat: Inflatsiyani nazorat qilish uchun pul massasini kamaytirish.

Monetar siyosat iqtisodiyotning turli jabhalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin va uning samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq, jumladan global iqtisodiy sharoitlar, ichki iqtisodiy holatlar va siyosiy omillar.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot davomida monetar siyosat bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish, iqtisodiy nazariyalar va amaliyotlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganishga yordam beradi. Quyida monetar siyosat bo'yicha muhim adabiyotlar va ularning asosiy g'oyalari keltirilgan:

Keynes nazariyasiga ko'ra iqtisodiy inqirozlar va ishga joylashish muammolarini hal qilishda davlat aralashuvining ahamiyatini ta'kidlaydi. U pulning iqtisodiy faoliyatga ta'sirini o'rganadi¹.

Amerikalik iqtisodchi olimlar Milton Friedman va Anna Schwartz pul massasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'lanishni tahlil qiladilar. Ular monetar siyosatning inflyatsiya va iqtisodiy o'sishga ta'sirini ko'rsatadi, deya o'z tadqiqot ishlarida bayon etgan.²

John B. Taylorning "Monetar siyosat qoidalari" (Monetary Policy Rules) nomli kitobida Taylor qoidasini yaratgan bo'lib, u quyidagicha tavsiflanadi: foiz stavkalarini belgilashda inflatsiya va iqtisodiy o'sish darajasini hisobga olishni taklif etadi. Bu qoidalar monetar siyosatni avtomatlashtirishga yordam beradi.

Milton Friedman esa o'z tadqiqotlari natijasida "Monetar siyosatning roli" (The Role of Monetary Policy) ilmiy asarini yaratgan. Friedman monetar siyosatning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatadi. U pul massasi nazoratining inflyatsiyani kamaytirishdagi rolini ta'kidlaydi.

¹ J.M.Keynes, The General Theory of Employment, Interest, and Money, ETH Zurich, 1936. https://www.files.ethz.ch/isn/125515/1366_keynestheoryofemployment.pdf

² Milton Friedman, Anna Schwartz, A Monetary History of the United States.:AQSH, 1989. <https://www.nber.org/system/files/chapters/c6734/c6734.pdf>

A. W. Mullineux va A. I. Murindening ilmiy qarashlariga binoan, “Markaziy bank: Monetar va moliyaviy barqarorlik nazariyasi va amaliyoti” (Central Banking: Theory and Practice in Sustaining Monetary and Financial Stability) asarida markaziy banklarning roli va vazifalari, shuningdek, monetar siyosat va moliyaviy barqarorlik oʻrtasida oʻzaro bogʻliqlik mavjudligini koʻramiz.

Ushbu adabiyotlar monetar siyosat boʻyicha keng qamrovli tushuncha berib, turli nazariyalar va amaliyotlarni birlashtiradi, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashda muhim ahamiyatga ega.


TAHLIL VA NATIJALAR

Global iqtisodiyotda monetar siyosatning murakkabligi va oʻzaro bogʻliqligi iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashda muhim rol oʻynaydi. Har bir mamlakatning monetar siyosati global iqtisodiyotga qanday taʼsir koʻrsatishini tushunish uchun keng qamrovli tahlil zarur. Oʻzbekiston Respublikasida monetar siyosatni tartibga soluvchi normativ hujjatlar bir qator qonunlar, qarorlar va nizomlardan iborat. Ular Markaziy bankning faoliyatini belgilaydi va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashga qaratilgan. Quyida Oʻzbekistondagi monetar siyosatga taʼsir koʻrsatadigan asosiy normativ hujjatlar keltirilgan:

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - mamlakatning iqtisodiy siyosatini belgilovchi asosiy hujjat boʻlib, moliya va iqtisodiyot sohasidagi asosiy prinsiplarni oʻz ichiga oladi, "Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy Banki toʻgʻrisida"gi Qonun Markaziy bankning vazifalari, funksiyalari va huquqlarini belgilaydi, shuningdek, uning mustaqilligini taʼminlaydi, "Pul-kredit siyosati toʻgʻrisida"gi Qonun pul-kredit siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari va mexanizmlarini belgilaydi, Markaziy bankning qarorlari va nizomlari Markaziy bank tomonidan qabul qilingan qarorlar, nizomlar va yoʻriqnomalar monetar siyosatni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, "Valyuta tartib-taomillari toʻgʻrisida"gi Qonun valyuta operatsiyalarini tartibga solish va valyuta bozorini boshqarishga qaratilgan normativ hujjat, iqtisodiy rivojlanish va kambagʻallikni qisqartirish dasturlari, ushbu dasturlar doirasida monetar siyosatni qoʻllab-quvvatlovchi chora-tadbirlar ishlab chiqiladi, xalqaro standartlar va tavsiyalar Oʻzbekiston Markaziy banki xalqaro moliya tashkilotlari (masalan, IMF) bilan hamkorlik qilib, xalqaro standartlarga mos keluvchi monetar siyosatni amalga oshirishga harakat qilmoqda, Moliya va iqtisodiyot sohasidagi boshqa qonunlar moliya bozorlarini va moliyaviy institutlarni tartibga soluvchi boshqa qonunlar ham monetar siyosatga taʼsir koʻrsatadi.

Ushbu normativ hujjatlar Oʻzbekiston Respublikasining monetar siyosatini belgilab beradi va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashda muhim rol oʻynaydi. Shuningdek, mamlakatning monetary siyosatini takomillashtirish uchun asosiy jihatlardan biri hisoblanadi. Xalqaro tajriba hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasiga koʻra barqaror monetar siyosatni yoʻlga qoʻyishda meʼyoriy-huquqiy hujjatlar katta ahamiyatga ega.

Amerika Qoʻshma Shtatlarining monetar siyosatini takomillashtirish jarayoni bir qator strategiyalar va chora-tadbirlarni oʻz ichiga oladi. Quyida Amerika Qoʻshma Shtatlarning barqaror monetar siyosatning asosiy yoʻnalishlari hamda xususiyatlari keltirilgan:



1-rasm. AQSH monetar siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari

Ochiqlik va shaffoflik - Federal rezerv tizimi (Fed) o'z siyosatini yanada shaffofroq qilish orqali bozor ishtirokchilariga aniqroq ma'lumot berishi va qarorlarining sabablari haqida izoh berishi mumkin. Iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish - iqtisodiy ko'rsatkichlarni yanada chuqurroq tahlil qilish va prognozlarni takomillashtirish orqali o'z siyosatini yanada samaraliroq qilishi mumkin. Yangi monetar instrumentlar - yangi monetar asboblar va mexanizmlarni joriy etishi, masalan, "kengaytirilgan monetar siyosat" yoki "nolinchi foiz stavkalari" kabi usullarni qo'llashi mumkin.


Ijtimoiy va iqtisodiy tenglik - ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun monetar siyosatni yanada inklyuziv qilish, bu orqali iqtisodiy o'sishni kengaytirish va kambag'al qatlamlarga yordam berish mumkin.

Global iqtisodiy sharoitga moslashuv - global iqtisodiy o'zgarishlarga tezda javob berish va xalqaro moliya bozorlarini hisobga olish orqali Federal rezervning siyosatini yanada moslashuvchan qilishga xizmat qiladi.

Inflatsiya maqsadlari - inflatsiya maqsadlarini belgilash va ularga erishish uchun strategiyalarni takomillashtirish, masalan, inflatsiya maqsadini o'zgartirish yoki yangi ko'rsatkichlar asosida belgilashga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalar - raqamli valyutalar va yangi moliyaviy texnologiyalarni joriy etish orqali monetar siyosatni yangilash va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash. Iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash - iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun investitsiyalarni va ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini anglatadi.

Raqamlarni o'rganib chiqsak, 2017 yilda tashqi savdo defitsiti 1,4 mlrd dollar yoki umumiy tashqi savdo aylanmasiga nisbatan 5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yil so'ngiga kelib bu ko'rsatkich 11,3 mlrd dollar yoki umumiy tashqi savdo aylanmasiga nisbatan 23 foizga yetgan. Umumiy qilib aytganda, o'tgan besh yil ichida tashqi savdo defitsiti hajman sakkiz barobarga, ulush hisobida esa salkam besh barobarga ortgan. Bu tendensiyani izohlash uchun yuqorida keltirilgan — tashqi savdoning nisbatan erkinlashishi hamda qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarining yaxshilanishi kabi — omillarning o'zigina yetarli emas.



2-rasm. Asosiy foiz stavkasi va inflyatsiya darajasining o'zgarishi.

Yuqoridagi rasmda keltirilgan ma'lumotlarga binoan 2022 yilda inflyatsiya hamda asosiy foiz stavkasi orasidagi farq 2021 yilga nisbatan qisqarganligi amalda monetar siyosatning biroz yumshayotganligiga ishora qilayotgandek. Ammo, bu jarayon 2022 yilda kuzatilgan mintaqaviy geosiyosiy keskinlashuv, xususan, Ukrainadagi urush ortidan qisqa muddatda ayrim turdagi oziq-ovqat tovarlari narxiga tashqi bosimlarning keskin oshganligi natijasida yuz berdi. Buning natijasida, monetar siyosatni yanada qattiqlashtirishni taqazo etdi va bunga javoban regulyator asosiy foiz stavkasini 17 foizgacha oshirdi. Keyinchalik inflyatsiyaga tashqi bosimlarning nisbatan pasayishi natijasida asosiy stavka ketma-ket pasaytirilib, 15 foizgacha tushirildi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda monetary siyosatni yanada takomillashtirish hamda yangi bosqichga olib chiqqan holda uning barqarorligini ta'minlash uchun avvalo butunlay shaffof monetary siyosatni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, mamlakatda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi pul-kredit siyosatini amaliyotga joriy etish hamda xalqaro standartlar, normalarni muvaffaqiyatli implementatsiya qilish uchun “kengaytirilgan monetar siyosat” yoki “nolinchi foiz stavkalari” kabi yangi yo'nalishlarni joriy etish tavsiya etiladi.

Shu bilan birga quyidagi yo'nalishlarni joriy etish tavsiya etiladi:

- Monetar asboblarni diversifikatsiya qilish. Yangi monetar asboblar va mexanizmlarni joriy etish, masalan, qisqa muddatli foiz stavkalarini boshqarish yoki obligatsiyalar bozorini rivojlantirish.

- Bank tizimini mustahkamlash. Bank tizimining barqarorligini oshirish, risklarni boshqarish va moliyaviy xizmatlarni kengaytirish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash.

- Iqtisodiy tahlil va prognozlarni yaxshilash. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni chuqurroq tahlil qilish va prognozlarni takomillashtirish orqali monetar siyosatni yanada samarali qilish.

- Raqamli valyuta va fintech innovatsiyalar. Raqamli valyutalarni joriy etish va moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish orqali monetar siyosatni yangilash.

- Ijtimoiy va iqtisodiy tenglikni ta'minlash. Kambag'al qatlamlarga yordam berish va ijtimoiy tenglikni oshirish uchun monetar siyosatni inklyuziv qilish.

- Xalqaro hamkorlik. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, tajriba almashish va global iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish.

- Mahalliy valyuta bozorini rivojlantirish. Mahalliy valyuta bozorini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy barqarorlikni oshirish.

Ushbu usullar O'zbekistonda monetar siyosatni takomillashtirishga xizmat qiladi, shuningdek, iqtisodiy barqarorlik va o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.J.M.Keynes, The General Theory of Employment, Interest, and Money, ETH Zurich, 1936.

https://www.files.ethz.ch/isn/125515/1366_keynestheoryofemployment.pdf

2. Milton Friedman, Anna Schwartz, A Monetary History of the United States.:AQSH, 1989.

<https://www.nber.org/system/files/chapters/c6734/c6734.pdf>

3. A. W. Mullineux, A. I. Murinde, Markaziy bank: Monetar va moliyaviy barqarorlik nazariyasi va amaliyoti.: Wiley finance edition, 2014.

4.Milton Friedman, Monetar siyosatning roli (The Role of Monetary Policy).: 1968.